

Yusufjanova Dilrabo Shavkatjon qizi, NamDChTI magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqoladi nemis adibi Gyotening Sharq va sharq adabiyotiga muhabbati va uning ijodida sharqono adabiy ta'sir masalalari hususida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Garb va Sharq, adabiy ta'sir, ijod, badiiy asar, ilhom.*

Аннотация: В данной статье говорится о любви немецкого писателя Гете к Востоку и литературе Востока и проблемах восточного литературного влияния в его творчестве.

Ключевые слова: Запад и Восток, литературное влияние, творчество, художественное творчество, вдохновение.

Annotation: This article talks about the love of the German writer Goethe for the East and the literature of the East and the issues of oriental literary influence in his work.

Key words: West and East, literary influence, creativity, artistic work, inspiration.

Gyotening dunyoqarashiga Sharq ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ta'siri katta bo'lgan. Sharq mavzusiga murojaat qilishini uning o'zi shunday izohlaydi: «Yevropadagi hayot sharoiti va davr taqozo qiladi». Napoleon urushidan so'ng tushkunlikka tushgan Yevropa voqeligidan ko'ra Sharq uni o'ziga ko'proq jalb qiladi. Gyote Sharq mamlakatlari madaniyati, tarixi, adabiyotini juda yaxshi bilgan, Firdavsiy, Anvoriy. Sa'diy, Nizomiy, Rumiy, Hofiz, Jomiy kabi buyuk sharq ijodkorlari asarlari bilan yaqindan tanish bo'lgan. U Hofiz Sheraziyni o'ziga ustoz deb biladi. Sharq she'riyatidagi hayotsevarlik, inson aqliga, imkoniyatlariga ishonch tuyg'usi uni o'ziga maftun qiladi. Bu kayfiyat uning 1819- yilda e'lon qilingan «Mag'rib-u Mashriq devoni» she'rlar turkumida o'z ifodasini topgan.

«Nur Sharqdan», – deyiladi Yunon naqlaridan birida. Darhaqiqat, quyosh Sharqdan chiqadi. Aql quyoshi ma'rifat ham Mashriqda tug'ilib Mag'ribga yo'l olgandir. Ustoz olim N.Komilov ta'kidlaganidek, san'at va madaniyat dastlab Xitoy,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Hindiston, Markaziy Osiyo, Arabiston, Misr kabi o'lkalarda maydonga kelgandir. Lekin Sharq olamiga ziyo berib, uni mumtoz aylagan tafakkur tug'ilgan joyida qolib ketmadi, balki umuminsoniyat aqli-shuuri, mushtarak mulki sifatida zamonlar osha G'arbga ham yetib bordi. G'arbning mo'tadil, osoyishta tuprog'iga yangidan yangi ilhomlar berdi. G'arb-Sharqning bu «oldi-berdi»si to hanuzgacha davom etmoqda. Bugungi Yevropaning xolis fikrlovchi eng mashhur olimlari qadim antik madaniyatning maydonga kelishida Xorazm sarhadlarida ko'z ochgan zardushtiylik ta'limotining hal qiluvchi ta'sirini ko'radi. O'z navbatida, G'arb antik madaniyati insoniyat tafakkurining ajralmas bir sahifasi bo'lib tarixga kirdi. O'rta asrlar islam fani unga yangi hayot baxsh etdi. Aristotel, Platon, Ptolomey, Galen kabi o'nlab daholarni Arastu, Aflatun, Batlimus, Jolinus nomlari bilan Yevropaga qayta tanitdi. Ayni paytda Al- Xorazimi, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi tafakkur mash'allarini dunyoga berdi. G'arb yana Sharqqa ergashdi. Va bu uzuksizlik qonuniga amal qiluvchi hodisa XV asrlargacha davom etdi.

Sharq adabiyotidan ko'plab G'arb ijodkorlari ilhomlangan va o'z asarlarida sharqona g'oyalardan foydalanishgan. Jumladan, uyg'onish davri adabiyotining yirik vakillaridan biri Dante Aligeri, Jovani Bokachcholar fikrimizga misol bo'la oladi. Sharq adabiyotidan ta'sirlangan yana bir buyuk ijodkor nemis adibi Gyotedir, uning dunyoga mashhur “G'arb-u Sharq” devoni sharqona ruh, sharqona g'oyalar, tasavvufiy konsepsiyaning asosida sug'orilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mashhur nemis adibi Yohann Wolfgang Gyote (1749-1832) shoir, dramaturg va adabiyotshunos, huquqshunos va sharqshunos, tarixchi va faylasuf, rassom va teatrshunos, biologiya va mineralogiya fanlari bo'yicha kashfiyotlar qilgan olim va davlat arbobidir. Uning “Faust”, “Yosh Verterning iztiroblari”, “G'arbu-Sharq devoni”, “Tavrida ifigeniyasi”, “Rim elegiyalari”, “Torkivator Tasso”, “Nabotot evrilishi”, “Sehrlisibizg'a”, “Rang haqida ma'lumot” kabi asarlar, shuningdek, uch mingdan ziyod she'rlari dunyo adabiyot ixlosmandlari tomonidan sevib o'qiladi. Manbalarda ayttilishicha, Gyotening Veymarda nashr etilgan ilmiy merosi 143 jilddan iborat edi.

Bu asarlar ichida adibning 1814-1815-yillarda yozila boshlagan va ilk marta

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1819- yilda, Gyote 70 yoshida adabiyot ahliga ma'lum qilgan “G'arb-u Sharq devoni” asari alohida ahamiyatga ega. O‘z ijodining so‘nggi davrlarida Gyote qadimiy hind, xitoy va ayniqsa, musulmon Sharqining madaniyati, adabiyotiga qiziqgan. O‘rta Osiyo va Eronning tarixi hamda madaniyatini chuqr o‘rganib, bu xalqlarning “ruhini anglamoqchi” bo‘lgan. Gyote Sharq shoirlaridan, ayniqsa, Hofiz Sheroziyni yoqtirib, uni “yaqin birodarim” deb atagan. Hofizdagi erkin fikr, hayolchanlik, insoniy sha'n, xurofotga itoat qilmaslik kayfiyatları Gyotening hayotsevarlik g‘oyasiga juda mos tushgan. Mumtoz she‘riyatga erkin nazira yo‘lida yozilgan ajoyib she‘rlariga chuqr lirizm, rang va tovushlar boyligi, ehtosli sevgining taronaları (bu davrda Gyote yosh go‘zal shoirani – Marianna Fon Villemerni sevgan) o‘quvchini shu qadar maftun etadiki, bular 65 yoshdagি shoir tomonidan yozilganiga kishi hayron qoladi. Gyotening “G‘arb-u Sharq devoni”ning jozibasi undagi otashin muhabbat bilan chuqr falsafiy fikrlarning hamohang bo‘lishidadir. Bu she‘rlarda shoirning jamiyatdagi o‘rni, hayot, muhabbat, xalq haqida ajoyib ma‘nodor va mutafakkirlarcha mulohazalari bayon qilingan. O‘sha davrdagi Yevropa san‘at arboblari Sharq xalqlarini nazar-pisand qilmaganlari holda, Gyote, aksincha, ularning she‘riyatini va insoniy fazilatlarini yuksak baholagan. Gyotening Sharq shoirlariga bergen ajoyib bahosini esga olish kifoya: “Aytishlariga qaraganda, eronliklar o‘zlarining besh asr mobaynida o‘tgan shoirlaridan faqat yettasinigina buyuk shoir deb qabul qilganlar. Holbuki ular yaroqsizga chiqargan shoirlar orasida ko‘plari mendan yuqori tursa kerak”.

Xo‘sh, bu “yetti yulduz” kimlardan iborat? Na eroniylar o‘zlari va na Gyote bunday bir “sab’ai – shuarо” tizganlari yo‘q. Mashhur nemis sharqshunosi Hammering ko‘p tekshirishlari natijasida chiqargan xulosasiga ko‘ra, bular: Firdavsiy, Anvari, Nizomiy, Jaloliddin Rumi, Sa‘diy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiydir. Gyote o‘zini kamsitib, Sharq shoirlarini ulug‘lashi bilan o‘z davrida Yevropada keng tarqalgan irqchilik nazariyasiga va tor millatchilikka qanchalik begona bo‘lganini isbotlagan.

Gyote murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechayotgan bir davrda yashayotgan edi, G‘arbda davlat tuzumi tanazzulga yuz tutayotgan bir pallada

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ma’naviy muhitdan qoniqish his qilmagan adib xayolan “Sharqqa hijrat qiladi”. Sharq she’riyatining sehridan ilhomlanadi, sharqona obrazlar, motivlar Gyoteni g’oyatda ta’sirlantiradi. Bu ilhom, adabiy ta’sir mahsuli sifatida buyuk asar – “Mag’rib-u Mashriq” devoni yaratildi. Ushbu asar ham G’arb, Sharq badiiy an’analarini o’zida mujassam etgan bo’lib, “Buyuk Gyote qadimgi Yunoniston va Rim ilm-u fani bilan birga, Sharq madaniyati va adabiyoti yutuqlarini ham tashnalik bilan singdirib yuborgan”.

Gyote fikricha, Sharq adabiyoti va she’riyati, go’yoki, “Xizr chashmasi”. U Sharqning buyuk ijodkorlari Hofiz Sheroyi, Firdavsiy, Sa’diy, Jaloliddin Rumiy tafakkurlaridan bahra oladi, undan hamisha musaffolik ufurib turishini ta’kidlaydi. Adib, garchi, Olmoniyada yashab ijod etgan bo’lsa- da, ammo ruhan Sharqqa yaqin. Gyote asarlaridagi mohiyat, hissiyot Sharq ruhiyatiga juda xosligi bilan alohida ajralib turadi. Sharqqa nisbatan ixlosi baland bo’lgan shoirning devonda keltirilgan satrlarini o’qir ekanmiz, uning musulmon olamiga, Sharq dunyosiga yuksak mehr qo’yanligini bilamiz va Sharq tafakkuriga nechog’lik muhabbat bilan qiziqayotganining guvohi bo’lishimiz mumkin. Uning ta’biricha, jahon she’riyatidagi yetti yulduzning barchasi sharqlik shoirlardir. Shu yetti yulduz qatorida Hofiz, Sa’diy, Navoiyni tilga olar ekan: “Men ularning soyasiga ham arzimayman”, – degan kamtarona fikrlarni aytib o’tadi.

Gyote ijodiy olami faqat nasroniylik aqidalari va G’arb madaniyati bilan cheklanmagan. Sharq falsafasi, Islom dini, sharqona tafakkur sarchashmalaridan bahramand bo’lib, buni ozining ma’naviy olamiga chuqur mujassam etgan mutafakkir desak, mubolag’a bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Абдуллаева Равияжон. Гёте Й.В.”Сайёхнинг тунги қўшиғи” шеърининг таржималари ва қиёсий таҳлили: Адабиёт кўзгуси. 7-китоб. –Тошкент: 2002.
- 2.Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997.- 415 б.
- 3.Goethe J.W.,West-östlicher Divan. 8 Auflage. – Baden-Baden: Insel Verlag, 1988.
- 4.Strich Fr. Goethe und Weltliteratur. – Bern: 1946.